

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 149 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNINI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	



O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Saidov Dilshodbek Razzakovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti (PhD)

ORCID:0009-0005-2721-5807

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda avtomobil biznesining rivojlanish tendensiyalari, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati hamda sohaning hozirgi holati kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida avtomobil ishlab chiqarish, sotish va servis xizmatlari tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan, ichki bozor imkoniyatlari va mavjud muammolar SWOT-tahlil asosida baholangan. Shuningdek, ekologik talablarning kuchayishi, elektromobillar bozorining shakllanishi hamda servis xizmatlari kon'yunkturasidagi o'zgarishlarning avtomobil biznesiga ta'siri atroflicha yoritilgan. Olingan natijalar avtomobil biznesini barqaror rivojlantirish, servis xizmatlari sifatini oshirish va sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: avtomobil biznesi, avtomobilsozlik sanoati, servis xizmatlari, dilerlik tarmoqlari, mahalliyashtirish, raqobatbardoshlik, elektromobillar, ekologik talablar, investitsiya muhiti.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the development trends of the automotive business in Uzbekistan, its role and significance in the national economy, as well as the current state of the industry. The study identifies the key factors influencing the development of automotive production, sales, and service systems, and assesses domestic market opportunities and existing challenges based on SWOT analysis. In addition, the impact of increasing environmental requirements, the formation of the electric vehicle market, and changes in the service sector environment on the automotive business is examined. The findings serve as a scientific basis for developing practical recommendations aimed at ensuring sustainable development of the automotive business, improving service quality, and strengthening industry competitiveness.

Keywords: automotive business, automotive industry, service services, dealership networks, localization, competitiveness, electric vehicles, environmental requirements, investment climate.

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ тенденций развития автомобильного бизнеса в Узбекистане, его роли и значения в национальной экономике, а также современного состояния отрасли. В ходе исследования выявлены ключевые факторы, влияющие на развитие системы производства, реализации и сервисного обслуживания автомобилей, а также на основе SWOT-анализа оценены возможности внутреннего рынка и существующие проблемы. Особое внимание уделено влиянию усиления экологических требований, формированию рынка электромобилей и изменениям конъюнктуры сервисных услуг на развитие автомобильного бизнеса. Полученные результаты служат научной основой для разработки практических рекомендаций, направленных на устойчивое развитие автомобильного бизнеса, повышение качества сервисных услуг и укрепление конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: автомобильный бизнес, автомобильная промышленность, сервисные услуги, дилерские сети, локализация, конкурентоспособность, электромобили, экологические требования, инвестиционный климат.

KIRISH

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida avtomobil sanoati va avtomobil biznesi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avtomobil biznesi nafaqat transport vositalarini ishlab chiqarish va sotish, balki servis xizmatlari, ehtiyot qismlar bozori, logistika, moliyalashtirish hamda sug'urta xizmatlari kabi ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga olgan kompleks tizim hisoblanadi. Ushbu sohaning barqaror rivojlanishi aholi farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va sanoatni modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat dasturlari avtomobil biznesining jadal rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, mahalliy avtomobil ishlab chiqarish hajmining ortishi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyatining kengayishi, avtomobil savdosi va servis xizmatlari bozorida raqobat muhitining kuchayishi ushbu sohaning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, ekologik toza transport vositalariga bo'lgan talabning ortib borishi hamda mijozlarga yo'naltirilgan servis xizmatlarining rivojlanishi O'zbekistonda avtomobil biznesi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda aholi soni va daromadlarining oshishi avtomobillarga bo'lgan talabning keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa har bir davlat oldiga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda avtomobil biznesini rivojlantirish masalasini qo'yimoqda. Shu bilan birga, avtomobil bozorining rivojlanishi unga yondosh bo'lgan sohalar, jumladan, avtomobillarga servis xizmatlari ko'rsatish darajasini ham mos ravishda rivojlantirishni talab etadi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rivojlanishning hozirgi zamonaviy bosqichida har qanday mamlakat taraqqiyotini avtomobilsozlik sanoatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Keyingi davrda yalpi ichki mahsulot tarkibida avtomobilsozlik sanoatining global ulushi ortib bormoqda va ushbu o'sish dinamikasi yangi ish o'rinlarini yaratish hamda o'rtacha ish haqini oshirish imkonini bermoqda. Shuningdek, avtomobil sanoati soliq solinadigan bazani va davlat budjeti daromadlarini kengaytirishga hissa qo'shadi, yordamchi tarmoqlarning rivojlanishiga xizmat qiladi, fan-texnika taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda mamlakat aholisining to'lovga qodir talabi va turmush darajasidan dalolat beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, avtomobil biznesini tashkil etish va rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Mamlakatimizda avtomobilsozlik sohasini rivojlantirish uchun turli xil ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Saberi (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida avtomobil sanoatining tutgan o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Muallif avtomobil sanoatini yalpi ichki mahsulotning shakllanishiga, sanoat bandligiga hamda innovatsion rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tarmoqlardan biri sifatida baholaydi. Tadqiqotda avtomobil sanoati orqali yondosh tarmoqlarning rivojlanishi, eksport salohiyatining ortishi hamda texnologik taraqqiyotning jadallashishi ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Ushbu ish O'zbekistonda avtomobil biznesini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini asoslashda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

V. A. Sheyninning (2000) monografiyasi avtomobil transportini boshqarish sohasidagi zamonaviy muammolar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va samarali boshqaruv yechimlariga bag'ishlangan. Muallif avtomobil transporti tizimida rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor munosabatlariga mos boshqaruv modellarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Asarda keltirilgan ilmiy xulosalar avtomobil biznesini boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish, xususan, dilerlik tarmoqlari va servis xizmatlari faoliyatini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

K. Xaksever, B. Render, R. Rassel va R. Merdik (2002) tomonidan yozilgan asarda xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish va tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlar keng yoritilgan. Mualliflar xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, operatsiyalarni boshqarish va raqobat ustunligini ta'minlash masalalariga alohida urg'u beradilar. Ushbu manba avtomobillarga servis xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish, xizmat sifati oshirish va mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

J. A. Romanovich va S. J. Kalachev (2009) tomonidan tayyorlangan ilmiy ish servis faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning tashkiliy shakllari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlangan. Asarda servis xizmatlarini rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish masalalari kompleks tarzda yoritilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati ta'kidlangan. Mazkur manba avtomobil biznesida sotishdan oldin va sotishdan keyingi servis xizmatlarini rivojlantirish, ularning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Xususan, avtomobil biznesining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Statistik ma'lumotlarni o'rganishda dinamik va strukturaviy tahlil usullaridan



foydalanildi. Shuningdek, mamlakatda avtomobil biznesini rivojlantirish imkoniyatlari va to'siqlarini aniqlash maqsadida SWOT-tahlil usuli qo'llanilib, sohaning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda ehtimoliy tahdidlari kompleks baholandi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda ochiq axborot manbalari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda avtomobil biznesini rivojlantirish imkoniyatlari va to'siqlarini aniqlash maqsadida SWOT-tahlil natijalari keltirilgan(1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida avtomobil biznesini rivojlantirishning SWOT-tahlil¹

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
– Dunyoga mashhur bo'lgan brendlar (ISUZU, MAN, Chevrolet) ostida avtomobillarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi; – avtomobil bozorini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va proteksionizm siyosati; – avtomobil ishlab chiqarishda yondosh bo'lgan butlovchi qismlar va detallarni mahalliyashtirish darajasining oshib borayotganligi; – sotishdan oldin va sotishdan keyingi davrlardagi xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga e'tibor qaratilayotganligi; – dilerlar va distribyutorlar faoliyatini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining oshganligi; – milliy va xorijiy brendlar ostidagi avtomobillarni ta'mirlash va tuzatishga ixtisoslashgan servis shahobchalarining tashkil etilayotganligi.	– Mahalliy ishlab chiqaruvchi va yig'uvchi korxonalarda yangi mahsulotlarni yaratish jarayonining sust borayotganligi; – ishlab chiqarilgan avtomobillar bilan bog'liq nosozliklarning tez-tez uchrab turishi; – avtomobillarga servis xizmatlari ko'rsatish miqdor jihatdan o'sib borayotgan bo'lsa-da, sifat jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi; – avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yo'l bo'yi infratuzilma subyektlari va turli maishiy shoxobchalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
– Ichki bozorda talabning haddan tashqari yuqori bo'lishi va sotish hajmini yetarli darajada oshirish imkoniyatining mavjudligi; – import bojlarining mavjudligi ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatdagi ustunligini ta'minlashi; – avtomobil biznesida yangi servis xizmatlarini tashkil etish va qamrov darajasini kengaytirish imkoniyatining mavjudligi; – servis xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarni sohaviy AKT bo'yicha o'qitish; – mahsulot bilan bog'liq servis xizmatlarini tashkil etish orqali raqobat ustunligini ta'minlash va tashqi bozorlarga chiqish; – ikkilamchi avtomobil bozorida sotish va sotishdan keyingi kafolat xizmatlarini rivojlantirish imkoniyati; – avtomobil biznesida band bo'lgan xodimlarni o'qitish va ularning malakasini oshirish imkoniyatining mavjudligi.	– Mahalliyashtirish jarayonlari jadallashtirilmasa, tashqi bozorlarga qaram bo'lib qolish ehtimoli; – butlovchi qismlarning chetdan keltirilishi natijasida avtomobillar tannaxsining oshishi va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanishning cheklanishi; – servis xizmatlari sifati va ko'lamini kengaytirishdagi kamchiliklar sababli biznes faolligining pasayishi va raqobat ustunligini yo'qotish; – dilerlik tarmoqlarining jahon menejmenti va marketingi talablari darajasida faoliyat yuritmasligi tufayli yopilish ehtimoli; – yoqilg'i bozoridagi va jahon avtomobil bozoridagi salbiy kon'yunkturaviy o'zgarishlar; – ekologik talablarning kuchayishi va elektromobillarning keng miqyosda kirib kelishi natijasida servis bozori kon'yunkturasining o'zgarishi.

Keltirilgan SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimizda avtomobil biznesini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, mashhur brendlar asosida avtomobillar ishlab chiqarish va ularga servis xizmatlari ko'rsatishning yo'lga qo'yilganligi avtomobil biznesining ustun tomonlari sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, jahon miqyosida ekologik talablarning tobora kuchayib borishi hamda elektromobillar va gibrid transport vositalarining keng joriy etilishi natijasida servis xizmatlari bozorida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. An'anaviy ichki yonuv dvigatelli avtomobillarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar uchun ushbu jarayonlar yangi talablar va moslashuvlarni taqozo etmoqda. Elektromobillar uchun maxsus texnik xizmat ko'rsatish, zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik standartlarga mos servis tizimini shakllantirish zarurati mamlakatimiz avtomobil bozori rivoji uchun muayyan tahdidlar bilan bir qatorda yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltirmoqda.


1 Muallif ishlanmasi

Umuman olganda, respublika sanoatining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishida avtomobilsozlik tarmog'i strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor va istiqbolli sohalardan biri sifatida qaralmoqda. Avtomobil biznesini izchil rivojlantirish, eng avvalo, ichki bozorda yil sayin ortib borayotgan aholi talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobiga qondirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, import hajmini qisqartirish, mamlakatdan valyuta chiqib ketishini kamaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish orqali davlatning valyuta tushumlarini ko'paytirish imkonini beradi. Natijada mamlakat to'lov balansida ijobiy saldo ta'minlanishiga muhim hissa qo'shiladi.

Shuningdek, avtomobilsozlik va avtomobil biznesi rivojining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham yuqori bo'lib, ushbu soha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash, mutaxassislar malakasini oshirish hamda aholining real daromadlarini ko'paytirish orqali muhim ijtimoiy masalalarni hal etishga xizmat qiladi.

Mazkur jihatlardan kelib chiqqan holda, keyingi bosqichda mamlakatimizda avtomobil biznesi, xususan, avtomobilsozlik sanoatining so'nggi yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlarini atroflicha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasida 2010–2020-yillar mobaynida sanoat ishlab chiqarish tarkibida avtotransport vositalarini ishlab chiqarish sohasining ulushi dinamikasi shuni ko'rsatadiki, ushbu tarmoqning umumiy sanoatdagi ulushi o'n yil davomida taxminan 10–14 foiz atrofida shakllanib, nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan.

Sanoat ishlab chiqarishida avtotransport vositalari ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2016-yilda o'zining quyi chegarasiga erishib, 4,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017–2018-yillarda sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 14,0 foizga yetkazilgan. Keyingi ikki yildagi pasayish esa ushbu ko'rsatkichning 11,1 foizgacha kamayishiga sabab bo'lgan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida mavjud salohiyatdan to'laonli foydalanilmayotganligi hamda butlovchi qismlarni yetkazib berishning tashqi bozorga bog'liq bo'lib qolayotganligini ko'rsatish mumkin(1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010–2020-yillarda sanoat ishlab chiqarishida avtotransport vositalari ishlab chiqarish ulushi dinamikasi (foizda)²

O'zbekistonda avtomobil biznesining rivojlanish jarayonlari so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar, sanoatni diversifikatsiya qilish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanmoqda. Mamlakatda avtomobil ishlab chiqarish, sotish va servis xizmatlari tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, ichki bozor ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama jarayonida, eng avvalo, avtomobil ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi va mahsulot turlarining kengayishi alohida e'tiborga loyiqdir. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yangi rusedagi yengil va tijorat avtomobillarining ishlab chiqarilishi, ularning texnik va dizayn jihatdan takomillashib borayotgani ichki bozorda raqobat muhitini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda mahalliyashtirish darajasining oshishi importga bog'liqlikni qisqartirish va mahsulot tannaxrini pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, jahon avtomobil bozorida kuzatilayotgan ekologik talablarning kuchayishi va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining keng tarqalishi mamlakatimiz avtomobil biznesi uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga

2 Muallif ishlanmasi



keltirmoqda. Elektromobillar va gibrid transport vositalarining bosqichma-bosqich kirib kelishi natijasida servis xizmatlari bozori kon'yunkturasi o'zgarib, an'anaviy texnik xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talab kamayishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, servis korxonalaridan yangi texnologiyalarni joriy etish, maxsus uskunalar bilan ta'minlash hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni talab etadi.

Avtomobil biznesini moliyalashtirish mexanizmlari ham muhokama qilinadigan muhim masalalardan biridir. Lizing, avtokredit va sug'urta xizmatlarining rivojlanishi aholining avtomobil sotib olish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, ayrim hollarda yuqori foiz stavkalari va moliyaviy talablarning qat'iyligi bozor faolligini cheklamoqda. Shu bois, moliya institutlari va avtomobil kompaniyalari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda avtomobil biznesi rivojlanishining asosiy tendensiyalari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, bozorni diversifikatsiya qilish, servis xizmatlarini takomillashtirish hamda ekologik talablarga moslashish bilan xarakterlanadi. Sohaning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun xalqaro tajribani keng joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va inson kapitali salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda avtomobil biznesi iqtisodiyotning strategik va istiqbolli tarmoqlaridan biri ekanligi aniqlandi. Mamlakatda avtomobil ishlab chiqarish hajmlarining oshib borishi, mashhur xalqaro brendlar ishtirokida qo'shma korxonalar faoliyatining kengayishi hamda ichki bozorda talabning yuqoriligi sohaning asosiy ustun jihatlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, ekologik talablarning kuchayishi va elektromobillarning keng joriy etilishi avtomobil biznesi uchun bir tomondan muayyan tahdidlarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan yangi servis xizmatlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda bozorni diversifikatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbekistonda avtomobil biznesining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun servis xizmatlari sifatini oshirish, inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xalqaro tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Saberi. The role of the automobile industry in the economy of developed countries. Int Rob Auto J, 2018, 4(3), 179–180. DOI: 10.15406/iratj.2018.04.00119
2. Романович Ж. А., Калачев С. Ж. Сервисная деятельность. М.: Дашков и Ко, 2009. 268 с.
3. Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р., Мердик Р. Управление и организация в сфере услуг. Теория и практика. СПб., 2002. 752 с.
4. Шейнин В. А. Управление автомобильным транспортом России: современные проблемы, организационно-экономические решения. Монография. М.: ГУУ, 2000. 166 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100